



BA'ZI UNDOSH FONEMALARDA ASSIMILYATSIYA HODISASI

Sharipova Begoyim

SamarqandDU Kattaqo'rg'on filiali
Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti
Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek
tili yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ba'zi undoshlarning talaffuzida uchraydigan assimilatysiya, diftong, neytralizatsiya hodisalari va shevalardagi holatlari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: konsonantizm, til undoshlari, intervokal, pozitsiya, neytralizatsiya, diftong, yozma savodxonlik.

Undosh tovushlar- o'g'iz va bo'g'iz bo'shligi'ida turli to'siqlarga uchrab paydo bo'ladigan, tarkibi faqat shovqindan yoki ovoz va shovqindan iborat tovushlar. Kuchli ziddiyatdagi undosh fonemalarni farqlovchi asosiy belgi quyidagilar hisoblanadi: a) hosil bo'lish o'rniga ko'ra; b) hosil bo'lish usuliga ko'ra; d) ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra; Undosh fonemani hosil bo'lish usuliga ko'ra portlovchi, sirg'aluvchi, sonorga, ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra jarangli va jarangsizga, hosil bo'lish o'rniga ko'ra lab, tish, bo'g'iz undoshiga ajratish mumkin. Hozirgi o'zbek tilida 24 ta undosh fonema bo'lsa, turk tilida 17ta , rus tilida 34ta va fin tilida 14tani tashkil qiladi.

SHavkat Rahmatullayev: "Ovoz va shovqin til tovushlari tarkibida turlicha qatnashadi. Ayrim tovushlarning tarkibi faqat ovozdan, ayrim tovushlarning tarkibi esa faqat shovqindan iborat bo'ladi. Birinchi tur tovushni ovoz tovush deb, ikkinchi tur tovushni shovqin tovush deb nomladik,"- deydi.



Undosh fonemalar tizimi konsonantizm deyiladi. Undosh fonemalar: b, v, g, d, j, j, z, y, k, l, m, n, ng, p, r, t, f, x, ch, sh, q, g', h. Hosil bo'lish o'rniga ko'ra undoshlar uchga bo'linadi: 1. Lab undoshlari a) lab-lab undoshlari: b, m, p; b) lab-tish undoshlari: f, r. 2. Til undoshlari: a) til oldi undoshlari: t, d, s, z, sh, j, j, ch, n, l, r. b) til o'rta undoshi y ning hosil bo'lishida tilning o'rta qismi tanglayga yaqinlashadi; d) til orqa undoshlari — k, g, ng, q, g', x. 3. Bo'g'iz tovushi: h.

Hosil bo'lish usuliga ko'ra undoshlar 2 ga bo'linadi: a) portlovchilar: t, d, p, b, k, q, ch, j, g, m, n, ng. b) sirg'aluvchi tovushlar: v, f, z, s, g', h, sh, j, y, l, r m, n, ng, l, r portlovchi-sirg'aluvchi deyiladi. Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra undoshlar sonorlar va shovqinlilarga bo'linadi. Sonorlar - m, n, ng, l, r qolgan barcha undoshlar shovqinlilardir. Shovqinlilar ham ikkiga ajraladi: a) jaranglilar: b, v, g, d, j, z, y, l, m, n, ng, r, g', j va jarangsizlar: p, f, k, t, s, sh, x, ch, h, q. Shuningdek, undoshlar tarkibiga ko'ra sof va qorishiq (affrikat) bo'ladi. O'zbek tilida 2 ta qorishiq undosh: j, ch bor. Ular tarixan 2 tovushdan tarkib topgan tovushlardir. Qolgan undoshlar sof undoshlardir. O'zbek tilida aytilish usuliga ko'ra yon (l) burun (m, n, ng) va titroq (r) tovushi ham ajratiladi.

“B” fonemasi-lab-lab, portlovchi, jarangli, shovqinli undosh, “p”ning jarangli jufti. Bu fonema so'z o'rtasida jarangsiz undoshlar bilan yonma-yon qo'llanganda assimillatsiyaga uchrab, jarangsiz «p» tarzida talaffuz etiladi. Ikki unli orasida (intervokal pozitsiyada) ko'pincha sirg'aluvchi “v” ga o'tadi: chivin-chibin, qovoq-qoboq kabi. Bunday o'zgarish ikki so'z birikkanda ham sodir bo'ladi: boraver-bora ber, Jo'ravoy-Jo'raboy. “P”-fonemasi-lab-lab, portlovchi, jarangsiz, shovqinli undosh, “b”ning jarangsiz jufti. Jarangli “b”ning so'z oxirida jarangsizlanishi “b” va “p” fonemalarining mo'tadillashuviga, neytralizatsiyaga olib keladi. Qiyoslaymiz: kitob-kitop, kanob-kanop kabi. “V” fonemasi-lab-lab, sirg'aluvchi, jarangli, shovqinli undosh o'zbek tiliga tojik-fors va arab tillaridan o'zlashgan so'zlarda ko'p qo'llanadi: navo, navodir kabi. O'zbek tiliga arab va rus tillaridan o'zlashgan so'zlarda lab-tish “v” talaffuz qilanadi: avtomat-aftomat, arxiv-arxif tarzida



talaffuz qiinishi ham mumkin. “F” fonemasi-lab-tish, sirgʻaluvchi, jarangsiz undosh. Bu undosh sof turkiy soʻzlarda qoʻllanmaydi, fors, arab, rus tillaridan oʻzlashgan. Jonli soʻzlashuvda lab-tish “f” ning lab-lab, portlovchi, jarangsiz “p” tarzida talaffuz qilinish holatlari uchrab turadi: faqat-paqat, qafas-qapas kabi. “M” fonemasi-lab-lab, sonor, burun tovushi. Qadimgi turkiy tilda soʻz boshida “b” ning fakultativ ottenkasi sifatidagina uchragan (ming-bing soʻzida). “T” fonemasi-til oldi-alveolar, portlovchi, jarangsiz, shovqinli undosh “d” ning jarangsiz jufti. Bu undosh tojik tilidan oʻzlashgan daraxt, doʻst, goʻsht, musht, kabi soʻzlar oxirida (sirgʻaluvchi x, s, sh undoshlaridan soʻng qoʻllanganda) talaffuz etilmasligi ham mumkin. Bunday hodisa turkiy soʻzlarda, shuningdek, ruschabaynalmilal oʻzlashma soʻzlarda kamroq uchraydi: yurist-yuris. “D” fonemasi-til oldi-alveolar, portlovchi, jarangli, shovqinli undosh, “t”ning jarangsiz jufti. Bu pozitsiyada “d” undoshining asosiy ottenkasi qoʻllanadi, boshqa holatlar “d” uchun kuchsiz pozitsiya hisoblanadi, bunda jarangli “d” ning jarangsizlashgan ottenkasi qatnashadi. Masalan: ketdi-ketti, tushdi-tushti, savod-savot kabi. “Z” fonemasi-til oldi, sirgʻaluvchi, jarangli, shovqinli undosh, “s”ning jarangli jufti. “Z” fonemasi “s” ga oʻtadi iztirob-istirob, mazkur-maskur kabi. Baʼzan soʻz oxirida ham biroz jarangsizlashadi: sakkiz-sakkis, tannoz-tannos kabi. “L” fonemasi - til oldi-alveolar, sirgʻaluvchi, jarangli, sonor tovush. Feʼlning shart mayli va sifatdosh shakllarida (“-sa”, “-gan” qoʻshimchalaridan oldin qoʻllanganda jonli soʻzlashuv nutqida oʻzak oxiridagi “l” tushib qolishi ham mumkin: kelsa-kesa, kelgan-kegan kabi. “N” fonemasi - til oldi-alveolar, jarangli, sonor, burun tovushi. Lab undoshidan oldin qoʻllanganda assimilatsiyaga uchrab, lab-lab “m” tarzida talaffuz qilinadi: shanba-shamba kabi. “R” fonemasi - til oldi, titroq, jarangli, sonor tovush. Toshkent shevasida otning “-lar” bilan qoʻllangan shaklida shu qoʻshimcha oxiridagi “r”ning tushib qolishi keng tarqalgan: kitoblar-kitobla, bolalar-bolala, akamlar-akamla kabi. Talaffuzning bu shakli adabiy til meʼyori sanalmaydi. “J” fonemasi - til oldi, sirgʻaluvchi, jarangli, shovqinli undosh. Bu undosh soʻz oxirida jarangsizlashadi: massaj-massash, drenaj-drenash kabi. “J (dj)”



fonemasi - til oldi, qorishiq portlovchi (affrikata), jarangli, shovqinli undosh, “ch”ning jarangli jufti. Soʻz oxirida bir qadar jarangsizlashib, “ch” ga yaqin talaffuz etiladi: lunj-lunch, vaj-vach, xiroj-xiroch kabi. Soʻz ichida jarangsiz undosh bilan yonma-yon boʻlganda ham jarangsizlashadi (assimilyatsiya qilinadi): ijtimoiy-ishtimoiy kabi. Demak, qorishiq “j (dj)” assimilatativ holatda yoki soʻz oxirida oʻzining asosiy boʻlmagan (notipik) ottenkasi bilan qatnashadi. “Ch” fonemasi-til oldi, qorishiq portlovchi (affrikata), jarangsiz, shovqinli undosh, “j (dj)” ning jarangli jufti. Jarangsiz undosh taʼsirida baʼzan “sh”ga oʻtadi: uchta-ushta kabi. “Y” fonemasi -til oʻrta, sirgʻaluvchi, sonor undoshi. “I” unlisidan soʻng qoʻllanganda, shu unli bilan singishib, fonetik diftong hosil qiladi: vodi-y-vodi, dohiy-dohi kabi. “Y” undoshi yumshoq (palatal) tovushdir, shuning uchun u bilan yondosh qoʻllangan unlilar akkomodatsiyaga uchraydi - orqa qator unlilar old qator (ingichka) ottenka bilan talaffuz qilinadi. Qiyos qiling: qoʻl-qol kabi. “K” fonemasi - sayoz til orqa, portlovchi, jarangsiz, shovqinli undosh, “g”ning jarangsiz jufti. Koʻp boʻgʻinlisoʻzlarda egalik affiksi qoʻshilganda, asosdagi “k” jarangli “g”ga oʻtadi: kovak-kovagi, yurak-yuragi kabi.

Xulosa oʻrnida shuni aytib oʻtishim kerakki, undosh fonemalar baʼzan talaffuzda assimilatsiyaga uchragan holatda bosgqa undosh fonemaga yaqin talaffuz etilsada, yozuvda morfologik qoidaga muvofiq yoziladi. Fonologik jihatdan jarangli fonemalar jarangsiz fomalarga qarshi qoʻyiladi. Masalan: b-p, v-f, d-t va boshqalar. Yozuvda bunday fonemalarni yozishda koʻplab xatolarga yoʻl qoʻyiladi. Oʻquvchilarda diktant davomida soʻzlarning shevada qoʻllangan variantini yozish ketrish kuzatiladi. Bu imlo qoidalariga ziddir. Oʻquvchilarda imloviy xatolarni kamaytirish, yozma savodxonlikni oshirish ona tili oʻquvchilarining dolzarb muammosidir.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mengliyev B. Hozirgi o‘zbek tili. Toshkent: Tafakkur bo‘stoni, 2018.
2. Jamolxonov.H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent: Talqin, 2005.
3. Shoabdurahmonov SH., Asqarova M., Hojiyev A., Rasulov I., Donyorov X. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent, O‘qituvchi, 1980.
4. <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/tilshunoslik/unli-va-undosh-fonemalar-paradigmasi>